



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

MS  
2022





ISSN 2181-3787  
E-ISSN 2181-3795

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
международный научно-методический журнал

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
international scientific-methodical journal

**maxsus son**  
**2022**

## Jurnal haqida

### *"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali*

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

### *«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал*

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале *«Педагогическая акмеология»* являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

## About the magazine

### *"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal*

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

**Muassislar:** "Sadridin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,  
Buxoro davlat pedagogika instituti

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi,  
11-uy

**Web-sayt:** [www.paresearchjournal.uz](http://www.paresearchjournal.uz)

**Bosh muharrir:**

Daminov Mirzohid Islomovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:**

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**TAHRIR HAY'ATI:**

*Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)*

*Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjeyev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor*

*To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Farmonova Shabon Muhammadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**MUNDARIJA**

Boboyeva Muyassar Norboyevna. Matematika fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	6
Rasulov To'lqin Husenovich, Mamurov Boboxon Jo'rayevich. Matematika: oliy ta'lim va maktablar hamkorligining zamonaviy yo'nalishlari.....	13
Tabassum Saleem, Rasulov To'lqin Husenovich, Umarova Umida Umarovna. About the organization of distance education in universities of Uzbekistan and Pakistan.....	20
Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich, Yaxyoyeva Sharofat Mirmuxsin qizi. Matematik masalalar va tenglamalar mavzusini o'qitish xususiyatlari .....	28
Latipov Hakimboy Mirzo o'g'li. Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanib kompleks son dan kvadrat ildiz chiqarish mavzusini o'qitish.....	34
Rashidov Anvarjon Sharipovich. Ko'pyoqlar va ularning sodda kesimlarini yasash mavzusini interfaol metodlar yordamida o'qitish .....	39
Jo'raqulova Farangis Murot qizi. Ikki to'g'ri chiziq va kesuvchi hosil qilgan burchaklar mavzusini o'qitishda interfaol metodlar.....	45
Sharipova Mubina Shodmonovna. Sodda irratsional tengsizliklarni yechish usullari.....	50
Ismoilova Dildora Erkinovna, Sharipova Mubina Shodmonovna. Algebraik kasrlarni ko'paytirish va bo'lish mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari .....	56
Rashidov Anvarjon Sharipovich, Latipov Hakimboy Mirzo o'g'li. Silindrning hajmi mavzusini o'qitishda interfaol metodlar .....	62
Бобоева Муяссар Норбоевна, Марданова Феруза Ядгаровна. “Чизиқли тенгламалар системаси” мавзусини ўқитишда муаммоли таълим технологияси ва “зинама-зина” методини қўллаш .....	67
Xayitova Xilola G'afurovna, Sayliyeva Gulrux Rustam qizi. Funksiyaning o'sishi va kamayishi mavzusini o'qitishda interfaol metodlar .....	75
Xayitova Xilola G'afurovna. Tanlash usuli bilan kombinatorika masalalarni yechish metodikasi.....	81
Умарова Умида Умаровна. Масофавий таълимда айрим электрон дидактик таъминот воситалари.....	86
Sayliyeva Gulrux Rustam qizi. Fazoda Dekart koordinatalar sistemasi mavzusini o'qitishda interfaol usullar .....	92
Ахмедов Олимжон Самадович. Эффективные аспекты применения информационных и коммуникационных технологий при обучении математики .....	98
Ismoilova Dildora Erkinovna, Bir noma'lumli tengsizliklar va uni o'qitish metodikasi .....	108
Сафар Ходжиев, Наргиза Жўраева. Некоторые указания и решением текстовые задачи связанные с работой .....	114
Xodjiyev Safar, Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna. Parametrlil kvadrat tenglamalar va ularni yechish usullari.....	123
Raupova Mokhinur Haydar kizi. Benefits of computerized learning systems in mathematics .....	133
Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich, Qurbonov G'ulomjon G'afurovich. Natural sonlarni qo'shish mavzusini o'qitishning afzalliklari.....	138
Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich. Uchburchak tengsizligi mavzusini interfaol usullar yordamida o'qitish metodikasi.....	145
Do'stova Shahlo Baxtiyorovna. O'nli kasrlarni qo'shish va ayirish mavzusini interfaol usullar va aktdan foydalanib o'tish .....	151
Avezov Alijon Xayrulloevich, Nuriddinova Nigina Zamon qizi. Chizg'ich va sirkul yordamida geometrik masalalarni yechishni o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar.....	161

---

Rasulov Xaydar Raupovich. Absolyut uzluksiz funksiyalar mavzusini o'qitishda ayrim metodik tavsiyalar .....	168
Bahronov Bekzod Islom o'g'li, Jo'raqulova Farangis Murot qizi. Aralash sonlarni qo'shish va ayrish mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.....	180
Avezov Alijon Xayrulloevich. Oliy matematika fanini o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar.....	185
Марданова Феруза Ядгаровна. Математика faninig tabiiy fanlar bilan bog'liqligi haqida .....	193
Ахмедов Олимжон Самадович, Жумаева Чарос Илхомжон кизи. Основы и способы развития речемыслительной деятельности школьников при обучении математике.....	199
Do'stova Shahlo Baxtiyorovna, To'xtamishova Gulnora Mels qizi. Olimpiada masalalarini yechish usullari .....	207
Sayfullayeva Dilafro'z Ahmadovna, Mirzaqulova Nodira Ibragimovna. Texnologiya fani o'qituvchilarini kreativ, kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	216
Akobirova Madina Bo'ronovna, Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovna. Texnologik ta'lim yo'nalishida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini innovatsion texnologiyalardan foydalanib xorijiy tilda o'qitish.....	224
Akobirova Madina Bo'ronovna. Texnologiya fanlarini o'qitishda ingliz tilining ahamiyati .....	230
Karimova Mahbuba Nutfullayevna. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish .....	235
Jo'raev Akmal Razzoqovich, Rasulova Zilola Durdimurotovna. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini elektron ta'lim resurslardan foydalanib tashkil etish imkoniyatlari .....	240
Rasulov To'liqin Husenovich. Ishorasi aniqlanmagan ichki ko'paytmalar haqida ayrim mulohazalar .....	247
Раупова Мехринигор Хайдаровна. Педагогик амалиёт жараёнида бўлажак биология ўқитувчисининг квазипрофессионал фаолиятга тайерлаш методикаси .....	252
Mo'minova Sevara Faxriddinovna. Psixologning o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi faoliyati .....	264
Jo'raev Akmal Razzoqovich, Xallogova Oygul Olimovna. Texnologiya darslarini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish.....	271
Ориф Хамраевич Узиков. Профессиональная компетентность - это качества присущие самым успешным работникам .....	279
Мухидова Олима Нуриллоевна. Конструирование женского платья по инструкционно-технологическим картам .....	286
Quliyeva Shahnoza Halimovna. Texnologiya darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish.....	295

**Akobirova Madina Bo'ronovna**

Buxoro davlat universiteti «Elektronika va texnologiya» kafedrası o'qituvchisi

ORCID - 0000-0002-2043-9476

---

## TEKNOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI

---

**Annotatsiya.** Hunarmandchilik markazlarini sayyohlik salohiyatdan keng foydalangan holda, tashkil etish, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atining ko'p asrlik an'alarini saqlab qolish. Bugungi kunimizda amaliy san'at ustalarining yangi avlodlarini tarbiyalash, ularning barkamollikka erishishlari yo'lida barcha sharoitlar mavjudligi. Xalq amaliy san'atidan olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlar bo'lajak muallimlarni har tomonlama yetuk, jahon andozasiga javob bera oladigan mutaxassislar qilib tayyorlashga, qolaversa o'quvchilarini hozirgi zamon talab darajasiga javob bera oladigan qilib tarbiyalashda muhim o'rinni egallaydi. Oliy ta'lim tizimining texnologik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarni xorijiy tilda o'qitish jarayonining afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** hunarmandchilik, samaradorlik, eksport, infratuzilma, ekskursiya, turizm, kompetentlik, kasbiy faoliyat, ixtisoslik, texnologiya, o'xshashlik, didaktik, interfaol metodlar, salohiyat, ped texnologiya, innovatsiya.

## ЗНАЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

**Акобирова Мадина Бурановна**

Преподаватель кафедры «Электроника и технологии»

Бухарского государственного университета

ORCID - 0000-0002-2043-9476

**Аннотация.** Создание ремесленных центров с широким использованием туристского потенциала, развитие народных ремёсел, сохранение многовековых традиций народно-прикладного и прикладного искусства. Сегодня есть все условия для воспитания новых поколений мастеров прикладного искусства, для достижения ими совершенства. Учебные занятия по народному творчеству играют важную роль в подготовке будущих учителей как специалистов, способных во всех отношениях соответствовать мировым стандартам, а также в воспитании своих учеников на требования современности. Выделены преимущества процесса преподавания профильных предметов на иностранном языке при подготовке студентов, обучающихся в сфере технологического образования системы высшего образования, к профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** мастерство, эффективность, экспорт, инфраструктура, экскурсия, туризм, компетентность, профессиональная деятельность, специализация, технология, подобие, дидактика, интерактивные методы, компетентность, пед технология, инновация.

## THE IMPORTANCE OF ENGLISH IN TEACHING TECHNOLOGICAL SCIENCES

**Akobirova Madina Buronovna**

Senior teacher of the Department of «Electronics and Technology»

of Bukhara State University

ORCID - 0000-0002-2043-9476

**Annotation.** Establishment of craft centers with wide use of tourist potential, development of national crafts, preservation of centuries-old traditions of folk arts and crafts

*and applied art. Today, there are all the conditions for educating new generations of masters of applied art, for them to reach perfection. The training sessions on folk arts play an important role in preparing future teachers as experts who can meet world standards in all respects, and also in educating their students to meet the demands of the present time. The advantages of the process of teaching specialized subjects in a foreign language in preparing students studying in the field of technological education of the higher education system for professional activities are highlighted.*

**Key words:** *craftsmanship, efficiency, export, infrastructure, excursion, tourism, competence, professional activity, specialization, technology, similarity, didactic, interactive methods, competence, ped technology, innovation.*

## **KIRISH**

Qayd etish lozimki, o'tgan yillar davomida respublikamizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atining ko'p asrlik an'analarini saqlab qolish, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, hunarmandchilik kichik biznes va yakka tadbirkorlik rivojlanishining kuchli, mustaqil va ommaviy yo'nalishiga aylana olmadi.

«Hunarmand» uyushmasi, berilgan imtiyozlar va qulayliklarga qaramasdan, o'z saflariga hunarmandlarning keng ommasini qamrab ololmadi, uyushmaga a'zo bo'lganlar soni hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilarning kam qismini tashkil etmoqda. Hunarmandchilik markazlarini sayyohlik salohiyatdan keng foydalangan holda, tashkil etish ishlari holati qoniqarsizligicha qolmoqda, hunarmandlarga moliyaviy va xomashyo resurslari ajratish, ular ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish, shu jumladan eksport qilish uchun sharoit yaratishga yordam berish ishlari samaradorligi yetarli darajada emas.

Shunga ko'ra, hunarmandchilikni rivojlantirish yo'lidagi mavjud muammo va to'siqlarni tizimli bartaraf etish, O'zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish va yanada boyitish, hunarmandchilikni keng miqyosda qo'llab-quvvatlash hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanishga aholini, ayniqsa, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni jalb qilishga rag'batlantirish maqsadida 2017-yilning 17-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi [1].

## **ASOSIY QISM**

Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash asosiy maqsad qilib olindi.

«Hunarmand» uyushmasi a'zolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xomashyo materiallarini xarid qilish, hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, «usta-shogird» maktablarini tashkil etish, uy-muzey va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olish uchun yillik 14 foiz stavkada 3 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 18 oygacha muddatga 6 oygacha imtiyozli davr bilan 225 million so'mgachaimtiyozli kreditlar ajratiladi;

– hunarmandchilik loyihalarini moliyalashtirish uchun 500 milliard so'm yo'naltiriladi;  
– imtiyozli kreditlar hunarmandning talabi bo'yicha naqd pul olish imkoniyati bilan taqdim etiladi.

Yoshlarga hunar o'rgatayotgan hunarmandlarga shogirdlar tayyorlashi, xomashyo sotib olishi va shogirdlarni ish haqi bilan ta'minlashi uchun 6 oy davomida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan kam bo'lmagan miqdorda shogirdlarga mustaqil faoliyatini boshlashi uchun zarur asbob-uskuna va jihozlarni sotib olishi, shuningdek, ustalarga internet saytlarini tashkil etish, o'z mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarish va reklama xarajatlarining 50 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan qismiga subsidiyalar ajratiladi [2].



«Hunarmand» uyushmasi a'zolari:

- ijtimoiy soliq stavkasini yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida to'laydilar;
- faoliyat yuritish joyidan qat'iy nazar, kommunal infratuzilma xizmatlari, ya'ni elektr energiyasi, suv ta'minoti, kanalizasiya, gaz ta'minoti va issiqlik ta'minoti haqini aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha va shartlar asosida amalga oshiradilar.
- Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlarida hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlari savdosiga ixtisoslashgan savdo pavilonlaritashkil etiladi;
- savdo pavilonlari xorijiy va mahalliy turistlar uchun mo'ljallangan turistik marshrutlarga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, «Hunarmand» uyushmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda xalqimizning ko'p asrlik an'analari va madaniy hayotini keng yoritish, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atini namoyish etishga yo'naltirilgan «Sharq marvaridi» O'zbekiston an'anaviy san'at xalqaro festivalining har yili sentabr oyida tashkil etilishini ta'minlanishi aytib o'tildi.

Yildan-yilga mamlakatimizga sayyohlar soni tobora ko'payib borayotganini hisobga olsak, bu juda munosib e'tirofdir. O'tgan yilning yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga **6,748 million** kishi tashrif buyurgan bo'lib, bu **2018-yil** statistikasidan **125 foizga (5,346 million kishi)** ko'pdir. O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning umumiy sonidan **6,260 million** kishi MDH mamlakatlaridan, **488,4 ming** sayyoh esa olis xorij mamlakatlaridan kelgan. Mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar albatta bizning qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoroga kelishadi. Milliy qadriyatlarimiz nishonasi bo'lgan ushbu shaharlarda xalq hunarmandchigiga oid ko'plab ijodiy ishlar mavjud [2-3].

Biz shuni e'tiborga olishimiz kerakki, «Texnologiya» fani mashg'ulotlarida xalq hunarmandchiligiga oid barcha san'at turlari o'quvchi-talabalarga o'tiladi. Jumladan, naqqoshlik, kashtado'zlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik va boshqa amaliy san'at turlari haqida dars mashg'ulotlari davomida o'rgatilib boriladi.


Naqqoshlik san'ati ham hunar, ham san'atdir. Bu va bu kabi san'at turlarini egallash yoshlarning badiiy madaniyatini, tafakkurini, dunyoqarashi va estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Naqqoshlik san'ati asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan ko'z qorachig'iday asrab-avaylab kelindi va kelinmoqda. Hozirgi yosh avlod uni qabul qilib olarkan, o'z oldida turgan mas'uliyatni bir daqiqa ham unutmazligi lozim.

Xozirgi kunda Respublikamizda ta'lim-tarbiyanin jaxon standartlari talab darajasida bo'lishi aloxida ahamiyatga egadir. «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atining yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida»gi Prezidentining Farmoni bir necha muxim, dolzarb masalalarni o'z ichiga olishi bilan birgalikda - ta'lim – tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talabi

darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini parpo qilish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Xozirgi kunda Respublikamizda ta'lim-tarbiyanin jaxon standartlari talab darajasida bo'lishi aloxida ahamiyatga egadir. Bugungi kunimizda amaliy san'at ustalarining yangi avlodlarini tarbiyalash, ularning barkamollikka erishishlari yo'lida barcha sharoitlar mavjud.

Xalq amaliy san'atidan olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlar bo'lajak muallimlarni har tomonlama etuk, jahon andozasiga javob bera oladigan mutaxassislar qilib tayyorlashga,



qolaversa maktab o'quvchilarini hozirgi zamon talab darajasiga javob bera oladigan qilib tarbiyalashda muhim o'rinni egallaydi. Shuningdek bu sohada yangi o'quv rejalar, dasturlar, leksiya kurslari, o'quv qo'llanma va darsliklarni yaratish muhim ahamiyatni kasb etadi.

Texnologiya darslarini chet tili fanlari bilan integratsiyalasak, o'quvchi yoshlar mavzu bo'yicha yangi bilimga hamda mashg'ulot davomida chet tili, misol uchun, ingliz tilidagi so'zlarni ham o'rganishadi. Dars mashg'ulotlari davomida «Juftingni top» metodidan foydalansak, yangi so'zlar o'quvchi talabalarning chet tiliga qiziqishini orttiradi.

### **1-rasm. «Juftingni top» metodiga misol**

Xalq hunarmandchiligiga oid mavzularida o'quvchi-talabalarni tarixiy obidalarga sayohat tarzida o'tkazilsa, ularning so'z boyligi oshadi. Sayohatga kelgan turistik guruhlar bilan fikr almashtirish jarayonida dars mashg'ulotlarida olgan bilimlarini amalda qo'llay oladilar.

Milliy hunarmandchiligimizning katta tarmoqlaridan biri kulolchilikdir. 2022 yildan boshlab har ikki yilda bir marta sentyabr oyida Xalqaro kulolchilik forumi va kulolchilik mahsulotlari ko'rgazma-savdosi o'tkaziladi.

O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning umumiy sonidan **6,260 million** kishi MDH mamlakatlaridan, **488,4 ming** sayyoh esa olis xorij mamlakatlaridan kelgan.

Shu bilan birga, **2019-yilda** turizm xizmatlarining eksporti **1,313 milliard** dollarni tashkil etgan, 2018-yilda u **1,041 milliard** dollariga teng bo'lgan (o'sish 126 foiz).

Ushbu qiymatning yarmidan ko'prog'ini MDH mamlakatlaridan kelgan sayyohlar (**966,559 mln. AQSH dollari**) sarflagan, **346,472 mln.** dollar esa boshqa mamlakatlarning sayohatchilariga to'g'ri keladi.

Ko'rib turganingizdek, O'zbekistonda turizm jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu juda yaxshi yutuq hisoblanadi, chunki bizda dunyoga namoyish etadigan jihatlarimiz bor.

Buxoro shahrida «Ipak va ziravorlar» an'anaviy xalqaro festivali, Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi Sayilgoh ko'chasida har yili mustaqillik bayrami arafasida «Toshkent suvenirleri» ko'rgazma-yarmarkasi, yosh hunarmandlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish va sog'lom raqobatni yo'lga qo'yish maqsadida «Yosh hunarmandlar» festivali o'tkaziladi.

Ingliz tili dunyoning 12 mamlakatida, jumladan: AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiyada yashovchi 400 milliondan ortiq aholining ona tilidir.

Ushbu ma'lumotlarga tayanib, shuni aytish joizki, Texnologiya fanlarini ingliz tili bilan integratsiyalashimiz kerakligi kelib chiqmoqda [3].

Shu o'rinda beixtiyor o'tgan asr boshidagi ma'rifat fidoyilari – jadid bobolarimizning g'oya va qarashlari yodga tushadi. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy dunyo donishmandlari asarlaridan xabardor bo'lish, jahon adabiyoti durdonalaridan chinakamiga lazzatlanish, shuningdek, zamonasini anglash, taraqqiyot uchun chet tilini bilish o'ta muhimligini ta'kidlaydi. Chunonchi, jadidlar yetakchisi millat farzandlari o'z na'fi, jamiyatda muhim mavqe va obro'ga ega bo'lishi uchun xorijiy tilni bilishi zarurligi haqida so'zlab, qat'iyat bilan «Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqdir etguvchilar kerak», deya bong urgan edi.

Mamlakatimizda til masalasiga ko'rsatilayotgan e'tibor, xususan, davlat tilining nufuzi va obro'sini ko'tarish, ona tilimizni asrab-avaylash borasidagi sa'y-harakatlar o'z mohiyat-e'tibori bilan ma'rifatparvar bobolarimizning ushalmagan orzu-armonlarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi amaliy harakatlar ekanligi jihatidan beqiyosdir. Barchaga ma'lumki, jahon hamjamiyatiga integratsiya jarayonida, dunyo bozoriga dadil va faol kirib borilayotgan pallada xorijiy til bilimlariga ehtiyoj ortishi tabiiy. Shu bois bugungi kunda soha mutaxassisining har tomonlama yetukligi mezonlari o'z ona tili bilan bir qatorda, bir emas, bir necha chet tilini bilishi lozimligini taqozo etmoqda. Shu yilning 6-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi ana shu dolzarb masalaga bag'ishlandi [4-5].

Xorijiy tillarni o'qitish borasidagi boy o'quv-ma'lumotlar zahirasi mavjud bo'lgani holda, mazkur o'quv adabiyotlari metodikasiga tayanib, milliy madaniyatimiz, milliy zehniyat va umuman milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashilgan o'quv qo'llanmalari va darsliklarni yaratish zarur. Mualliflar guruhi kuchli metodist mutaxassislar va xorijiy mutaxassislardan

tashkil topishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy metodikada til ta'limi maqsadi o'quvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladigan kompetensiyalar, xususan, kommunikativ, lisoniy, madaniy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Talaba aynan ushbu kompetensiyalarga ega bo'lgandagina nafaqat, muloqotda, balki o'z sohasi doirasida ham tilni mukammal egallagan, har tomonlama savodli mutaxassis bo'lib yetishadi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida tillarni o'qitish dasturlarini bakalavrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan umumiy malaka talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va u yoki bu kompetensiyani shakllantirishga mo'ljallangan maxsus fanlarni tashkil etish, ya'ni soha tilini chuqurroq egallashlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir [5]. Xorij tajribasini o'rganadigan bo'lsak, oliy ta'lim dasturlariga yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bir qator fanlar kiritilgan. Xususan, «Nutq o'rganishga kirish», «Yozma nutq», «Siyosiy nutq», «Ommaviy muomala nutqi», «Ijtimoiy nutqiy aloqa», «Yuristning yozma nutqi». «Xizmat yozishmalari», «Lingvomadaniyat», «Diplomatik xatlar» kabi. Oliy ta'limda rus, ingliz va boshqa chet tillarida erkin savodli fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlarini kiritish orqali talabaning ma'lum malaka ko'nikmalari, xususan, soha tili, rasmiy yoki ilmiy nutq, yozma nutq savodxonligi, nutq madaniyati va notiqlik mahoratini shakllantirish mumkin. Shu maqsadda til o'qitishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish zaruriyati tug'ilmoqda [5].

#### **XULOSA**

Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida bakalavr va magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan umumiy malaka talablaridan kelib chiqqan holda til bo'yicha ixtisoslikka yo'naltirilgan bunday o'quv darslik va qo'llanmalarini ishlab chiqish oldimizda turgan eng birinchi vazifalarimizdan biridir. Bunda tegishli soha mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, PF-5242, 17.11.2017 yil.
2. Akobirova M.B. Teaching technology of hands crafts subject into English language. Asian journal of multidimensional research (AJMR). Vol 10, Issue 10, October, 2021.
3. Sayfullayeva D.A Innovative and Individual Approach in Professional and Vocational Training of Young People with Disabilities. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 6-2017 Part I.- P.154-157.
4. Sayfullayeva D.A, Rustamov E.T, Rayimova D.D, Jabborova M. J., Faridov M. F. Characteristics of technical creativity in technological education. Innovative technologica methodical research journal.2021. B-37-41.
5. Internet manba: [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz).